

TILIM BOYLIGIM-“O‘ZBEK TILIDAGI SO‘Z BOYLIGI VA INING NUTQ JARAYONIDA NAMOYON BO‘LISHI.

Luqmonova Yoqutxon Shavkatjon qizi

Farg‘ona shahar 1-sonli politexnikumi

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Til nima, til va nutq tushunchalari, so‘z tarixi, so‘z mas‘uliyati, asos va qo‘shimchalar imlosi ,shevaga xos so‘zlar, haqida o‘quvchilar yetarli ma‘lumot olishadi.

Kalit so‘z: so‘z yasalishi“, „yasama so‘z , fonema, [turli lisoniy qoidalar](#), leksema, morfologik so‘z, modal so‘zlar.

Ona tili – millatning ruhidir. Til — davlatning timsoli, mulki. Tilni asrab-avaylash orqali millat yuksaladi. Respublikamiz Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan belgilab qo‘yilgan. Ona tilimizga 1989 yil 21 oktyabrda davlat tili maqomi berildi. Bu yurtimiz hayotidagi tarixiy voqea bo‘ldi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo‘lidagi muhim qadamlaridan edi.

So‘z — [tilning](#) narsa-hodisalar, jarayonlar va xususiyatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan eng muhim strukturma‘noviy birligi; o‘z tovush qobig‘iga ega bo‘lgan, borlikdagi narsalar haqidagi tushunchani, ular o‘rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatni ifodalay oladigan, turli grammatik ma‘no va vazifalarda qo‘llanadigan eng kichik nutq birligi, leksemaning nutqda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan ko‘rinishi. So‘z ran uchun qurilish materiali bo‘lib xizmat qiladi, lekin, undan farqli ravishda, xabar yoki tugal fikr bildirmaydi. O‘zida leksik va grammatik ma‘noni birlashtirgan hodda so‘z muayyan so‘z turkumiga mansub bo‘ladi, o‘z tarkibida muayyan til tizimida oldindan tayin bo‘lgan barcha grammatik ma‘nolarni ifodalaydi.

Tilshunoslikda „so‘z“ atamasi leksemaga nisbatan ham qo‘llanadi va leksik so‘z deb yuritiladi. Masalan, „so‘z yasalishi“, „yasama so‘z“ birikmalarida „so‘z“ xuddi shu ma’noda qo‘llanadi. Leksemaning nutqda muayyan shaklda voqelangan holati tilshunoslikda so‘z shakl, leksema shakl yoki morfologik so‘z deb ham yuritiladi.

So‘zning tovush va ma’no tomoni bor. Lekin har qanday tovush yig‘indisi so‘z bo‘lavermaydi. Tovush yoki tovush birikmasi so‘z bo‘lishi uchun ma’noga ega bo‘lishi, ya’ni muayyan til egalari shu tovushlar vositasida biror narsani anglashi yoki birbiriga anglatishi kerak. So‘z ma’nosida umumiylik va yakkaalikning, barqarorlik va o‘zgaruvchanlikning dialektik o‘zaro munosabati aks etadi. Ma’noning barqarorligi o‘zaro tushunishni qulaylashtirsa, uning o‘zgaruvchanligi (so‘zning aniq, bir ma’nosidagi o‘zgarishlar) so‘zdan borlikdagi yangi tushuncha va narsalarni nomlashda foydalanishga imkon beradi, badiiy so‘z san’atining muhim omillaridan hisoblanadi. So‘zning ko‘p ma’nuliligi ham aynan ma’noning o‘zgaruvchanligi bilan bog‘liq. So‘zlovchining nomlanayotgan narsaga munosabati so‘z ma’nosining so‘zlovchi histuyg‘usini, shaxsiy fikrini ifodalovchi emotsional jihatini tashkil etadi. So‘z tilda muayyan tizimni shakllantiradiki, bu tizim so‘zning grammatik belgilariga (so‘z turkumlari), so‘z yasalishi aloqalariga va semantik munosabatlariga (sinonimlar, omonimlar, antonimlar) asoslanadi.

Bulardan tashqari, lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmagan, lekin o‘z tovush qobig‘iga, o‘ziga xos ma’no, vazifasiga ega bo‘lgan, shu bilan birga so‘z yasash yoki so‘z shaklini hosil qilish uchun foydalaniladigan morfemalardan farqlanuvchi til birliklari ham „so‘z“ deb yuritiladi. Bular yordamchi so‘zlar (bilan, lekin, kabi, xuddi), undovlar (obbo, ehhe, voy), taqlid so‘zlar (miyov, dukur dukur, yal tyult) va modal so‘zlar (shubhasiz, demak, ehtimol)dir.

Til va nutq bir - biriga bog‘liq hodisalardir. Til uchun nutq moddiy materialdir. Shu material asosida nutq tashkil topadi. Tildagi hamma narsa til jamoasi uchun umumiy bo‘ladi. Tilda ruhiy va moddiy material mavjud. So‘z, morfema, fonemalarning kishi xotirasidagi obrazlari ruhiy

material hisoblanadi. Nutq tuzishda nomoyon bo'ladigan so'z shakllari, morfemalar, tovushlar moddiy materialdir. Bunda til bir tomondan moddiy hodisa bo'lsa, ikkinchi tomondan ruhiy hodisadir, degan xulosa kelib chiqadi. Tilning ruhiy hodisaligini uning ongda saqlanishi ko'rsatadi. Biz xotiramizda saqlanayotgan qoidalaridan tezkorlik bilan foydalanib, biror fikrni yuzaga chiqarish uchun so'zlar va grammatik so'z birikmasi va gaplarni hosil qilamiz. Masalan, ongimizda u kitobni qayerdan olganini bilish fikri tug'ildi, deylik. Uni savol tariqasida shunday yuzaga chiqaramiz: Sen kitobni qayerdan olding? Bunda biz sen, kitob, qayer, ol leksemalaridan: -ni, -dan, -da, -ng grammatikalaridan va so'roq gap modelidan hamda qoidasidan foydalandik. Bu gapni aytish jarayonida ongimizdagi leksemalar alohida morfemalarni qabul qilib, so'z shakllariga aylandi. Til ruxiy hodisadan moddiy hodisaga aylandi. Bu jarayon tugashi bilan tilga tegishli narsalar yana alohidalik holiga qaytadi va ongimizda avvalgidek saqlana beradi. Demak, ma'lum til jamoasidagi kishilar ongida tovush obrazlari sifatida saklanadigan va hamma vaqt haqiqatga aylanishga tayyor turgan so'z, fonema, [turli lisoniy qoidalar](#), gaplarning modellari tilga tegishlidir. Tilga oid narsalar chegaralangan miqdordadir. Ularning soni turli tillarda turlicha bo'ladi. Qaysi tilda til vositalari nisbatan ko'p bo'lsa, usha til boy til hisoblanadi. Jamoa hayotining butun sohalarini o'zida qamragan til jamiyat taraqqiyoti bilan rivojlanib boradi. Jamiyat extiyojiga javob bermay qolgan til elementlari iste'moldan chiqa boradi, ular urnida yangi ifoda vositalari paydo bo'ladi.

Asos va qo'shimchalar imlisi.

1. **a** unlisi bilan tugagan fe'llarga **-v, -q, -qi** qo'shimchalari qo'shilganda **a** unlisi o'aytiladi va shunday yoziladi: **sayla — saylov, qayna — qaynoq, sayra — sayroqi**. Shuningdek, **o 'qi — o'quvchi, sovi — sovuq, to'qi — to 'quvchi** so'zlarida **i** unlisi u ga aylanishi mumkin.
2. **Kk** harfi bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa, ular **g** va **g'** ga aylanadi: **yurak — yuragi, bilak — bilagim, tilak - tilagim; buloq — bulog'im, quloq — qulog'ing, qishloq — qishlog'i** kabi. **Erki, [ishtiroki](#), huquqi, ravnaqi** singari

soʻzlarda bunday holat kuzatilmaydi.

3. *Singil, oʻrin, koʻngil, oʻgʻil, shahar* kabi soʻzlarga egalik qoʻshimchasi, *qayir, ayir* soʻzlariga nisbat yasovchi qoʻshimcha, *ikki, olti, yetti* soʻzlariga jamlovchi son hosil qiluvchi qoʻshimcha qoʻshilsa, asosda tovush tushishi hodisasi roʻy beradi.

4. *U, shu, oʻsha* kabi olmoshlarga *da, -dan, -day, -dagi, -cha* qoʻshimchalari qoʻshilsa, bitta *n* orttiriladi, [aksincha](#), *men*, *sen* olmoshlariga *-ni* va *-ning* qoʻshimchalari qoʻshilsa, bitta *n* tushirib qoldiriladi: *bunda, shundan, oʻshancha, meni, sening* kabi.

5. *Parvo, obroʻ, mavqe* soʻzlariga egalik qoʻshimchalari (I va II shaxsda) qoʻshilsa, bitta *y* tovushi orttiriladi va shunday yoziladi: *parvoyi, obroʻyim, mavqeyim* kabi.

6. *-boz, -bon* qoʻshimchalari-*vos, -von* kabi [aytilsa-da](#), doimo asl shakli boʻyicha yoziladi: *dorboz, bogʻbon* kabi.

7. *-dir* nisbat yasovchi qoʻshimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir boʻgʻinli soʻzlarga qoʻshiladi: *yondir, bordir, quvdir* kabi (*kel* soʻzi bundan mustasno), qolgan oʻrinlarda *-tir* shaklida aytiladi va shunday yoziladi: *ektir, quyultir, kestir* kabi.

8. *-ga, -gacha, -gach, -guncha, -gani, -gudek, -gan, -gin, -gina* qoʻshimchalari uch xil aytiladi va yoziladi: *ertaga, ertagacha, borgach, borguncha, borgudek, borgan; eshikka, eshikkacha, [chiqqach](#), chiqquncha, [chiqqani](#)* kabi boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Quronov D. Til va tafakkur. – Toshkent: Fan, 2008.

Joʻrayev N. Oʻzbek tili leksikasi va uslubiyati. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2007.

Bozorov M. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: TDPU, 2019.

Rajabov A. Oʻzbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 2005.